

“BADOE’ UL-VASAT” DEVONIDA TAZOD SAN’ATI

Sarvinoz Axmadqulova,

O‘zbekiston Milliy universiteti 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada yetuk shoir Alisher Navoiyning “Badoe’ ul-vasat” devoniga kiritilgan g‘azallari mazmuni va ularda tazod san’atining qay holatda qo‘llanilganligi tahlil qilingan. Xususan, tazod san’atidan Navoiy o‘z lirikasida nozik did ila foydalangan.

Kalit so‘zlar: mutazod, mutobiqa, tazod, lirika, badiiy tasvir

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется содержание газелей великого поэта Алишера Навои, вошедших в «Бадое ул-васат», и условия, в которых используется в них искусство тазода. В частности, Навои с большим вкусом использовал искусство тазода в своей лирике.

Ключевые слова: тазод, мутазод, мутабика, лирика, художественный образ

ANNOTATION

This article analyzes the content of the poems of the great poet Alisher Navoi, included in the collection "Badoe 'ul-vasat" and the conditions in which the art of tazod is used in them. In particular, Navoi used the art of tazod in his lyrics with great taste.

Keywords: tazod, mutazod, mutobiqa, lyrics, artistic image

O‘zbek adabiyotida badiiy tasvirning ta’sirchan va keng qo‘llaniladigan vositalaridan biri tazoddir. Ushbu badiiy san’atni nasrda ham, nazmda ham uchratishimiz mumkin. Ma’lumki, tazod san’atidan misralarda o‘zaro zid bo‘lgan tushunchalarni ifodalovchi so‘z yoki iboralarni ishlatishda foydalaniladi. Yoqubjon Is’hoqov o‘zining “So‘z san’ati so‘zligi” kitobida tazod san’atiga ham alohida to‘xtalib o‘tib, bu badiiy vositaning bir necha nomlarini ko‘rsatadi. “Jumladan, Xalil ibni Ahmad uni *mutobiqa* deb atagan bo‘o‘lsa, “Tarjimon ul-balog‘a”da *mutazod*, “Hadoiq-us-sehr”, “Aruzi Humoyun”, “Jam’i muxtasar”, “Ilmi bade’ dar zaboni forsiy” kabi asarlarda esa tazod tarzida uchraydi” [1, 65]. Mutazod – ulug‘ shoir Alisher Navoiy asarlarida yuksak she’riy san’at darajasida taraqqiy etgan. Ayniqsa,

Navoiyning “Xazoniy ul-maoniy” devoni tarkibiga kiruvchi “Badoe’ ul-vasat” asarida tazod san’atining yorqin namunalarini ko‘rishimiz mumkin.

*Azal ham sen, abad ham sen, ne avval birla oxirkim,
Anga yo‘q ibtido paydo, munga yo‘q intiho paydo [7, 3]].*

Shoir yuqoridagi baytlarda *azal-abad*, *ibtido-intiho*, *avval-oxir* bir-biriga zid ma’noda bo‘lgan so‘zlarini keltirib tazod san’atini yuzaga keltirgan. Navoiyning ushbu misralarida Allohga bo‘lgan ishq kuylangan bo‘lib, seni hech kim yaratmagan, sen oldindan bo‘lgansan va sening oxiring ham yo‘q degan fikr yuritilgan. Senda ibtido, ya’ni boshlanish bo‘lmaganligi kabi intiho ham bo‘lmaydi.

*Ne sun’ungdin ajab yuz ming jahon bo‘lmoq yana paydo
Ne mulkunga xalal yuz ming jahon bo‘lsa nopaydo [7, 2]*

Alisher Navoiyning paydo radifli g‘azalida tazod san’atiga alohida to‘xtalsak ham bo‘ladi. Chunki shoir ushbu g‘azalida mutobiqa san’atidan keng foydalangan. Yuqorida keltirilgan bayt misralarining radiflari o‘zaro zidlanib tazodni yuzaga keltirgan. Sening yaratilishing ajabmaski yuz ming jahonni zohir qilsa, ammo biror nuqsoning yoki kamchiliging esa yuz ming jahonni g‘oyib, yo‘q qiladi.

Navoiy o‘z asarlarini boyitish uchun turli xil badiiy san’atlarni o‘z o‘rnida, juda chiroyli qo‘llab ma’no go‘zalligini ham oshirib borgan. Uning quyidagi misralariga ham tazod san’ati o‘zgacha ko‘rk qo‘shib turibdi:

*Jununim bu bo‘lsa, g‘amim bo‘lg‘usidur
Nechakim yoshursam yano oshkoro [7, 28]*

Shoir ushbu baytida *yoshursam* va *oshkoro* so‘zlari orqali tazodni yuzaga keltiradi. Haq yo‘lidagi oshiqligim xasratlarimdir. Oshiqligimni, g‘amlarimni qancha yashirsam ham yanoqlarim uni oshkor qilib, zohir aylamoqda. Bilamizki oshiqning oshiqligini uning yuzi aytib turadi. Navoiy ham oshkor bo‘lishlikka sabab qilib, yanoqlarni ko‘rsatadi.

*Chu ishq g‘olib erur, ehtiyoj emas Layli
Qilurg‘a ishvaki, Majnunni aylagay mag‘lub [7, 34]*

Shoir bu misralarida ishq doimo g‘olib, Layli esa oshig‘ini mag‘lub etish uchun ishva-yu noz-karashma qilishga ehtiyoj sezmaydi va bunga muhtoj ham emas degan

fikrni ilgari suradi. Negaki Majnunni shundoq ham ishq mag‘lub qilib bo‘lgan. Bu misralarda g‘olib va mag‘lub so‘zlari o‘zaro qarama-qarshi ma’nolarni ifodalagan.

*Ayog‘i chunki yetar ostoni tufrog‘ig‘a,
Boshimni aylagil ul xoki oston, yo rab. [7, 37]*

Navoiy bu misralarida ham ayoq va bosh so‘zlari orqali tazodni yuzaga keltirgan. Ya’ni bilamizki, bosh va oyoq bir-biriga zid bo‘lgan so‘zlar tushunchasini ham beradi. Oyog‘i yer, tuproq bo‘sag‘asiga yetar, boshimni qul qilaman degan ma’nolar ifodalangan.

Alisher Navoiy badiiy san’atlardan o‘z g‘azallarida juda bir chiroyli mahorat bilan foydalangan va bu o‘quvchilar ongida o‘ziga xos ta’sirchanlikni ham keltirib chiqargan.

*Tut yigitlikni g‘animatkim, qarig‘ach angladim
Kim, yigitlar ishq bor ermish, yigitlik chog‘i xo‘b. [7, 38]*

Ushbu misralarda yigitlik va qarilik so‘zlari asosida mutazod ifodalangan. Misralardagi *yigitlik* so‘ziga sinonim ravishda yoshlik so‘zini ham qo‘llash mumkin va bu bayt mazmuniga ham mos keladi. Ya’ni bayt mazmunida yoshlikni g‘animat bil, men bu narsani yoshim o‘tgach, qarigan chog‘im angladim. Yigitlik davrida kuch-g‘ayrat bor emish, aynan shu vaqtda sen ana shu kuchlarni saqlab qol va nimagadir erish. Chunki yoshlik vaqtlari Allohga bo‘lgan ishq va g‘ayrat kuchli bo‘ladi. Bu tuyg‘u esa, qarigach biroz susayishi, ya’ni jismonan bu narsalardan mahrum bo‘lib qolish mumkin. Shuning uchun yoshlikni bekor o‘tkazma doim ishq, g‘ayratga to‘la bo‘lgin, bu fazilatlar yoshlik onlari uchun xosdir degan fikrlar anglashilgan.

Bilamizki, Alisher Navoiy o‘zbek adabiyoti tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk shoir sanaladi. Uning lirikasi nihoyatda go‘zal va o‘ta ta’sirli. Buning sabalaridan biri esa, o‘z g‘azallarini badiiy san’atlar bilan bezash va o‘z o‘rnida foydalanishdir. Uning quyida keltirilgan misralari ham ushbu fikrlar isbotidir.

*Dahr aro, eykim, deding: aylab vafo, ko‘rdum jafu
Kim vafo ahlidurur, bu so‘z anga bordur ajib. [7, 38]*

Birinchi misrada butun dunyo, olam aro vafo qildim, hammaga vafodor bo‘ldim, ammo oxirida baribir jafolikka uhradim. Qilgan vafodorliklarim evaziga zulm, qo‘polliklar ko‘rdim, ko‘plab jafolar chekdim deding ma’no-mazmuni ilgari surilgan bo‘lsa, keyingi misrada lekin unutma kim vadasining ustidan chiqadigan, vafodor, atrofdagi har bir kasga vafoli bo‘lsa, albatta, bu ishi unga ajoyib, hayron qoldirarli

darajada yaxshilik olib keladi degan fikr yuritilgan. Har bir vafoli inson o'z orzulariga, maqsadlariga, mana shu vafodorligi uchun ham bir kun erishadi. Navoiy ushbu g'azalida tazoddan juda unumli foydalangan va buning asosida kata bir tarbiyaviy ahamiyat ham kasb etgan.

Darhaqiqat, Ulug' shoir Alisher Navoiy o'z asarlarida odamiylik ma'nomohiyatini Allohga bo'lgan samimiy muhabbati bilan uyg'unlikda tasvirlaydi. Uning har bir asarlaridan yangicha bir kashfiyot qila olamiz. Ayniqsa, Navoiy lirikasi o'z jozibasi bilan o'quvchilar mehrini qozongan va ongini sehrlab olgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Hatto shoir birgina tazod san'ati orqali o'quvchiga chinakam ta'lim-tarbiya ulasha oladi hamda insoniylik tuyg'ularini uyg'otib, yuraklarga bir ajib jo'shqinlik, ishq hissiyotlarini qo'shadi. Navoiy asarlarida keltirilgan obrazlar tazod san'ati yordamida keng ma'noda ochib berilgan. Yaxshini yomondan, yoshlikni qarilikdan, vafoni jafodan ajratib tasvirlar ekan, albatta, tasavvurda uyg'oqlik kayfiyatini, ko'tarinki ruhiyatni namoyon qiladi. Uning asarlarida tushkunlik kayfiyati mutlaqo uchramaydi. Shuning uchun ham biz Navoiyni o'qigan sari uni sevib, ardoqlayveramiz. Shoir tabiatan uyg'oq shaxs bo'lganligi uning lirikasida ham o'z aksini topgan. Vaholanki, asarlarida badiiy san'atlardan maromiga yetkazib foydalangan. Bu esa shoirning fikrlarini yanada teran qilgan. Badiiy san'atlardan foydalanish, shoirning nima demoqchi ekanligini biz anglab olishimiz uchun bir kalit desak ham bo'ladi. Masalan, baytda tazod san'atini ko'rganimizda, bilamizki, u yoki bu narsa, tuyg'ular bir-biriga qarshilantiriladi va misralardagi mazmun-mohiyat birgina badiiy san'at bilan ham ochib beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Yoqubjon Is'hoqov. So'z san'ati so'zligi. – Toshkent: MAKTUBOT-PRESS, 2006. – 128 b.*
2. *Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at. – Toshkent: Fan, 1983. – 375 b.*
3. *Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati, 4 tomlik. I tom. – Toshkent: Fan, 1983. – 656 b.*
4. *Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati, 4 tomlik, II tom. – Toshkent: Fan, 1983. – 644 b.*
5. *Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati, 4 tomlik, III tom. – Toshkent: Fan, 1984. – 624 b.*
6. *Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati, 4 tomlik, IV tom. – Toshkent: Fan, 1985. – 636 b.*
7. *Alisher Navoiy. MAT. Yigirma tomlik. Beshinchi tom. – Toshkent: Fan, 1990. – 528 b.*